

SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH – O'QITUVCHINING KREATIV YONDASHUVINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA

Bekchanova Nafosat Rajapboy qizi
Odamboyeva Mehribon Norimon qizi

Urganch RANCH texnologiya Universiteti Pedagogika mutaxassisligi magistrantlari.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1557469>

Annotatsiya. Mazkur maqolada sinfdan tashqari ishlarning ta'lif jarayonidagi ahamiyati, xususan, o'qituvchining kreativ yondashuvini shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Biz sinfdan tashqari faoliyatlarning mazmuni, shakl va metodlari orqali pedagogning ijodiy salohiyatini rivojlantirish yo'llarini tahlil qilganimiz. Shuningdek, maqolada o'qituvchilarning kreativ yondashuvini kuchaytirishga xizmat qilaadigan metodik tavsiyalar keltirilgan. Tajribaviy, interfaol va innovatsion yondashuvlar asosida sinfdan tashqari ishlarga kreativlikni kiritish orqali nafaqat o'quvchilarda, balki o'qituvchilarda ham yangicha fikrlash ko'nikmalarini shakllanishi asoslab berilganmiz.

Kalit so'zlar: sinfdan tashqari ishlar, kreativ yondashuv, pedagogik metodika, innovatsion ta'lif, o'qituvchi mahorati, ijodiy fikrlash, interfaol metodlar, ta'lif texnologiyalari.

Zamonaviy ta'lif jarayoni nafaqat dars davomida, balki darsdan tashqari faoliyat orqali ham shakllanadi. Bugungi kunda o'qituvchidan nafaqat bilim berish, balki har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, ijodiy tafakkurga ega shaxsni tarbiyalash talab etiladi. Bu esa o'qituvchidan pedagogik faoliyatga kreativ yondashuvni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, sinfdan tashqari ishlar o'qituvchining innovatsion va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, o'quvchilarda fanlarga qiziqishni kuchaytirish, ularni mustaqil izlanishga yo'naltirishning muhim omili bo'lib xizmat qiladi.

1. Sinfdan tashqari ishlarning mohiyati va maqsadi

Sinfdan tashqari ishlar – bu o'quv dasturidan tashqarida amalga oshiriladigan, lekin ta'lif-tarbiya jarayonining uzviy qismi hisoblangan faoliyat turidir. Bu faoliyatlar o'quvchilarning qiziqishlarini aniqlash, ularni chuqurlashtirish, iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash, ularning ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qiladi.

Sinfdan tashqari ishlarning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

O'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishini oshirish;

Ijodiy fikrlash va mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish;

Iqtidorli o'quvchilarni aniqlab, ularni rivojlantirish;

O'quvchilarni jamoaviy ishlashga, mas'uliyatga, tashabbuskorlikka o'rgatish.

2. Kreativ yondashuv va uning o'qituvchilik faoliyatidagi o'rni

Kreativlik – bu mavjud bo'lgan muammolarga noodatiy, yangicha echimlar topish qobiliyatidir. O'qituvchining kreativligi esa o'quvchilarga bilim berishda yangicha metodlardan foydalaniш, darslarni qiziqarli tarzda tashkil etish, o'quvchilar bilan samarali kommunikatsiya o'rnatish kabi jihatlarda namoyon bo'ladi. Sinfdan tashqari ishlar o'qituvchining shu qibiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi.

Misol uchun, fanga oid viktorinalar, fan haftaliklari, ilmiy-amaliy konferensiyalar, ijodiy tanlovlardan, loyihiy ishlardan kabi tadbirlar o'qituvchidan yangicha fikrlashni, tashabbuskorlikni, metodik yangiliklarni joriy etishni talab qiladi.

3. Sinfdan tashqari ishlardan orqali kreativ yondashuvni rivojlantirish yo'llari

Quyidagi yo'nalishlarda sinfdan tashqari ishlardan o'qituvchining kreativligini oshiradi:

Integratsion yondashuv: Turli fanlararo bog'liqlik asosida tadbirlar tashkil etish (masalan, "Fizika va san'at" mavzusida ochiq dars);

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish: Raqamli platformalar, interaktiv ilovalar, onlayn viktorinalar orqali sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish;

Ijodiy loyihiy ishlardan: O'quvchilarning mustaqil va guruhli loyihiyalarini yo'lga qo'yish, bu orqali o'qituvchi ham o'zining kreativ metodlarini sinovdan o'tkazadi;

Talab va qiziqishlarga mos yondashuv: O'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda faoliyatni tashkil etish.

Metodik tavsiyalar: Sinfdan tashqari ishlardan orqali o'qituvchining kreativ yondashuvini rivojlantirish

1. Maqsad:

O'qituvchining sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish orqali metodik mahorati va kreativ salohiyatini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, izlanish va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirish.

2. Vazifalar:

O'qituvchiga sinfdan tashqari ishlarning zamonaviy shakl va metodlarini tanlashda ko'maklashish;

O'qituvchining kreativ fikrlashini faollashtirishga xizmat qiluvchi pedagogik sharoitlarni yaratish;

O'quvchilar bilan ishlashda noan'anaviy usullardan foydalanishga yo'naltirish;

Tajriba almashinuvni va tahlil orqali samaradorlikni oshirish.

3. Asosiy metodik yondashuvlar:

A) Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv:

O'qituvchining sinfdan tashqari faoliyatni tashkil etishdagi roli faqat tashkiliy emas, balki ijodiy yetakchilik darajasiga ko'tariladi. Bu quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi:

Fan olimpiadalari, intellektual o'yinlar, viktorinalar;

Ilmiy-amaliy loyihiy ishlardan (mini-tadqiqotlar);

Ijodiy kechalar, sahna ko'rinishlari, teatrlashtirilgan darslar;

Tematick ko'rgazmalar (masalan, "Yosh ixtirochilar burchagi").

B) Interfaol va ijodiy metodlardan foydalanish:

Quyidagi metodlar sinfdan tashqari ishlarni qiziqarli va samarali tashkil etishga yordam beradi:

"Aqliy hujum";

"Rol o'ynash" va "Debatlar";

"Kichik guruhlarda ishlash" va "Teskari aloqa" metodlari;

"Klayster", "Konsept xarita", "6 shlyapa" metodi va boshqalar.

C) Raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlikda ishlash:

Quuizz testlar tuzish, Krossvordlar yechish;

4. Metodik ishni amalga oshirish bosqichlari:

Tayyorgarlik O'quvchilar qiziqishlari, darajasi va imkoniyatlari tahlil qilinadi; mavzu, shakl va metodlar belgilanadi

Rejalshtirish Faoliyat ssenariysi ishlab chiqiladi, zarur materiallar tayyorlanadi

Tashkil etish Tanlangan faoliyat turi o'tkaziladi (loyiha, tanlov, ko'rgazma, uchrashuv va h.k.)

Tahlil va baholash Faoliyat natijalari o'quvchilar va o'qituvchilar bilan birga tahlil qilinadi, xulosa chiqariladi, tavsiyalar beriladi

5. Kutilayotgan natijalar:

O'qituvchi o'z faoliyatini yangicha, kreativ ruhda tashkil etishga o'rganadi;

O'quvchilarning darsdan tashqari fanga bo'lган qiziqishi ortadi;

Ijodiy fikrlovchi, tashabbuskor o'quvchilar soni ko'payadi;

O'qituvchida metodik erkinlik, yangilik yaratish istagi paydo bo'ladi.

Sinfdan tashqari ishlari ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lib, o'qituvchining kreativ salohiyatini namoyon etish va rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bunday faoliyatlar orqali o'qituvchi yangi metodik yondashuvlarni sinab ko'rish, o'z pedagogik mahoratini oshirish, eng muhimi, o'quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu sababli, sinfdan tashqari ishlarni samarali tashkil etish o'qituvchining innovatsion va kreativ yondashuvini shakllantirishda asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES

1. Axmedova, N.A. (2021). Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar. Toshkent: "Fan va texnologiya" nashriyoti.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2909-sonli qarori (2017 yil 20 aprel). "O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida".
3. Hasanboyeva, D.S. (2020). Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish metodikasi. Toshkent: TDPU.
4. Xolboeva, Z.A. (2022). "Ijodiy fikrlashni rivojlantirishda interfaol metodlarning o'rni". // Pedagogik mahorat jurnali, №2 (65), 45–49-betlar.
5. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
6. Guilford, J.P. (1950). "Creativity". American Psychologist, 5(9), 444–454.
7. Runco, M.A. & Acar, S. (2012). "Divergent Thinking as an Indicator of Creative Potential". Creativity Research Journal, 24(1), 66–75.
8. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
9. Begmatova, S.T. (2019). "O'qituvchining kasbiy kompetentligini shakllantirishda sinfdan tashqari ishlarning roli". // Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar jurnali, №3, 29–34-betlar.
10. UNESCO (2020). Education in a post-COVID world: Nine ideas for public action. Paris: UNESCO Publishing.